IJOD MAKTABLARIDA HOZIRGI O‘ZBEK MODERNISTIK SHE’RIYATINI O‘QITISH MASALASI TAHLILI
(Faxriyor she’rlari misolida)

Xaitov Xusniddin Xasanovich, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi
e-mail: Husniddinhayit1989@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijod maktablarida hozirgi o‘zbek modernistik she’riyatini zamonaviy usullarda o‘qitish masalasi bo‘yicha puxta va aniq fikr-mulohzalar bayon etilgan. Shuningdek, o‘zbek zamonaviy she’riyatini o‘rganish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida shoir Faxriyorning ayrim she’rlari tahlil masalasiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: hozirgi she’riyat, modernistik she’riyat, o‘qitish masalasi, tahlil, talqin.

АНАЛИЗ ПРЕПОДАВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ В ТВОРЧЕСКИХ ШКОЛАХ
(на примере стихов Фахриёра)

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы преподавания современной узбекской модернисткой поэзии в творческих школах на основе современных методов. Изучение современной узбекской поэзии также сосредоточено на анализе некоторых стихотворений поэта Фахриёра сцелю развития у учащихся независимого творческого мышления.

Ключевые слова: современная поэзия, поэзия модернизма, вопросы обучения, анализ, интерпретация.

ANALYSIS OF TEACHING CONTEMPORARY UZBEK POETRY IN CREATIVE SCHOOLS (on the example of Fahriddin’s poems)

Annotation. This article provides a thorough and clear perspective on the teaching of modern Uzbek modernist poetr in art schools. Also, in order develop students’ independent, creative thinking in the study of modern Uzbek poetry attention is paid to the analysis of some poems of the poet Fakhiryor.

Keywords: contemporary poetry, modernist poetry, teaching problem, analysis, interpretation.

Kirish. Xalqimizning qo‘lga kiritgan yutuqlari qatori hozirgi o‘zbek she’riyati ma’naviy miqyosi, badiiy salohiyati ham kundan kunga o‘sib boryapti. Yangicha

tafakkur tufayli hozirgi she’riyat zamirida inson tuyg‘ularini, ruhiyatini va falsafiy g‘oyani ochib berish unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni erkin tarzda aks ettirish yetakchilik qilmoqda. Ana shu jihatdan hozirgi modernistik she’riyat adabiyotimizda o‘ziga xos badiiy qiymatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy-estetik tafakkurni shakllantirishda adabiyotning imkoniyatlari katta bo‘lganligi uchun ham istiqlolga erishilgan kundan boshlab asosiy e’tibor samara beradigan usullarni ishga solishga qaratilgan. Bu usulda yozilgan she’rlar ma’no va mazmun jihatidan yaqqol namayon bo‘lmaydi. Avvalo, kitobxonning ko‘ngliga havola etiladi. “Keyingi yillar adabiy hayotida o‘quvchi bilan sidqidildan fikrlashadigan, mushohada yuritishga undaydigan, birga hamdard kuyib-yonib yashaydigan qahramonlarni yaratish tamoyillari ustivorlik kasb etdi” [7, 19-b.]. Shu ma’noda ijod maktablarida o‘zbek modernistik she’riyati, jumladan, shoir Faxriyorning she’rlarini o‘quvchilarga o‘rgatish kuchli shaxsni tarbiyalashda ahamiyati yuqori, yuksak ma’naviy dunyoni yuzaga keltirishda muhim. Faxriyorning bitiklari kishini o‘ylanishga, takror-takror o‘qishga majbur etadi. Aksariyat hollarda o‘ta falsafiy mushohadalar yuritadi. She’rlari shakl ortidan goh ergashadi, goh ergashmaydi. Aksincha, u ko‘nglidan o‘tkazgan botiniy kechinmalarini asl holicha aks ettirishga urinadi. “Bugungi o‘zbek she’riyati qat’iy shakliy qoliplarni quloqqa moslashish talabi natijasi hisoblab, chin ko‘ngil ifodasiga aylanishga astoydil urinmoqda” [8, 106]. Faxriyor ijodining ma’lum qismini tashkil qilgan she’rlari na qofiya talablariga, na vazn talablariga bo‘ysunadi. Shu tarzda u o‘quvchining tafakkurini nom-nishonsiz ruhiy manzillar tomon yetaklab boradi. Zero, “aslida she’riyatga qanday yorliq yopishtirilishidan qat’iy nazar, u hamisha “eksperimantal” bo‘lmog‘i, ya’ni o‘quvchining tafakkur va tuyg‘ularini hech kimning “qadami tegmagan”, belgisiz bir ruhiy manzillar sari boshlamog‘i, ohoriga tegilmagan ma’anaviy vodiylarga olib chiqmog‘i lozim” [1, 3-b.]. Faxriyor esa yuqoridagi fikrlarni dasturamal qilib ijod etdi. U ko‘proq o‘zbek modern she’riyatning zabardast vakillari va g‘arb shoirlari singari ramzlar orqali kechinmalarini ifodalaydi. Bu o‘rinda simvolik obrazlar haqidagi quyidagi fikrlarni keltirib o‘tamiz. “Simvolik obrazlar – predmetlar, o‘simliklar, narsalar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtirish demakdir. Chunonchi, kabutar – tinchlik ramzi, gul va bulbul – ma’shuqa va oshiq ramzi, qizil rang – ozodlik ramzi va hokazo. Badiiy asarlarda ana shunday simvolik obrazlar ham uchrab turadi” [2, 58-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Ana shunday ramzli obrazlar Faxriyor she’rlarida talaygina topiladi. Qo‘llanilgan ramzlar shoir she’rlarining aksar poetik obrazlarini tashkil etadi. “She’r degani – yurak degani, to‘lqin degani, hayajon degani, timsol degani, timsollarda fikr yuritish degani” (Mirtemir). Kechinmalarda esa “timsollar tili vositasida tabiat-jamiyat-inson hayoti ko‘rinishlarini tushuntirish mumkin ekan” [7, 18-b.]. Shoir Faxriyor ham adabiyotshunos olim N. Rahimjonov ta’kidlaganidek, she’rlarida inson hayotini, fe’li-faoliyatini va taqdirini ramziy shakllarda, tuyg‘ularini moddiylashgan timsollarda ifodalaydi. Moddiylashgan timsollar orqali esa o‘quvchi ko‘z o‘ngida ranglarni tasavvur etadi. “Shu ma’noda she’rda so‘z

jilolanadi, joziba kuchga ega bo‘ladi” [7, 18-b.]. Shoirning botiniy kechinmalari ana shunday o‘ziga xos tarzda bitilgan.

Tahlil va natijalar. Faxriyor she’riyatidagi she’rlar bugungi kunda kechayotgan inson ruhiyatidagi takomilning o‘ziga xos ko‘rinishi, tarkibiy qismi tariqasida zohir bo‘ldi. Fikrning badiiy g‘oyaga aylanishi va muayyan qahramonlar faoliyatida estetik ma’no kasb etishi shoir dunyoqarashidagi o‘zgarishlar samarasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shoirning “Vatanparvar” nomli she’ridan parcha o‘qiymiz:

Uzun tog‘larining toshini
Yurak taftin berib ilitar.
Yurtga muhabbatin shoshilmay
To‘kayotgan qon bilan bitar [4, 3-b.]

Yuqoridagi she’riy bandda shoir tog‘ timsoli vositasida o‘tib ketgan buyuk ajdodlarimiz nazarda tutiladi. Bugungi kunda haqiqiy vatanparvar shaxs ana shu ulug‘ ajdodlarimizning nomini tiklashni, qoldirgan merosini o‘rganishni vazifasi deb biladi. Elimizning chinakam farzandlarini ko‘kka ko‘targan inson vatanning nomini olam aro ulug‘lagan bo‘ladi. Bu esa haqiqiy vatanparvarlikdir. Qolaversa, “to‘kayotgan qon” tushunchasi orqali Faxriyor vatanparvar shaxsning qilayotgan mashaqqatli, ulug‘vor mehnatini gavdalantirishga erishadi.

Shoir “Dunyoqarash” she’rida yozadi:

Qilich shaklidagi bo‘yinbog‘
bo`g`ma ilon shaklidagi bo‘yinbog‘
dunyoqarashning
tajovuzkor ko‘rinishlari

She’rning dastlabki qismida bo‘yinbog‘ni ilon va qilich ko‘rinishida ekanligini tasvirlaydi. Tasavvurimizda esa qilich va ilonning bo‘yinbog‘ ko‘rinishidagi o‘xshashlik belgisi orqali mavhum bo‘lgan dunyoqarashni gavdalantiradi. Bunda jahon miqyosida hayot kechirayotgan insonlarning tajovuzkor qarashlarida zulm qilish tushunchalari borligini ta’kidlaydi.

Bo‘yinbog‘dan dor yasamay turib ham
Bo‘g‘ma ilon qilmay turib ham
qatl etsa bo‘lar odamni
o‘zining ashaddiy dunyoqarashi bilan
dunyoqarash tajovuzi [4, 80-b.]

Lekin bugungi kunda dunyo hamjamiyatida terorrizmga homiylik qilayotgan yirik shaxslar borligini she’r mazmunigiga singdirishga urinadi. Bo‘yinbog‘ taqib yuradigan o‘sha tajovuzkor odamlarga agar niyating insonlarni o‘ldirish bo‘lsa, buning uchun terror harakati vakillarining – o`zining ashaddiy dunyoqarashi bilan ularni yo‘q qilish mumkin. Bu orqali dunyoni zulmkorlardan forig‘ qilish haqida she’rning yakun qismida to‘xtaladi.

Ko‘rinib turibdiki, Faxriyor she’rlarida chuqur falsafiy mazmun yetakchilik qiladi. Umuman olganda, mustaqillikdan keyingi yillarda ijod qilayotgan aksariyat shoirlar ijodida bu kabi holni kuzatishimiz mumkin. She’riyat shu jihatlari bilan inson tafakkur doirasini kengayishiga bois bo‘ladi. Fikrimizni professor Abdurauf

Fitratning she’rga berilgan quyidagi ta’rifi bilan dalillaymiz: “She’r va shoirliq” maqolasida “She’r nadur” savol qo‘yadi va bu savolga o‘zi shunday javob qaytaradi: “she’rda kishilarning qonini qaynatg‘uvchi, singirlarini uyg‘otg‘uvchi, miyasini titrarguvchi, sezgusini qo‘zg‘atguvchi bir kuch ma’naviy kuch bor. Shunday bir kuchi bo‘lmagan so‘z “vazn” va “qofiya”si bo‘lsun, she’r bo‘la olmaydur... Chin she’r yurak sezguvlarini ko‘rsatmakdir” [5]. Faxriyor she’riyatida esa kitobxonnning tuyg‘ularini uyg‘otadigan, sezgisini tebratadigan hamda chuqur o‘yga toldiradigan asarlar talaygina topiladi.

Poetik asarning badiiy xususiyatlari haqida gapirganda, albatta, dastlab detallarni tilga olish mumkin. Negaki, shoir poetik detallardan mahoratli foydalansa, kitobxonga bir muncha ta’sir etishi, qolaversa, asarning g‘oyaviy ko‘lamini yoritilishiga ko‘mak berishi mumkin. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “ya’ni lirik qahramon qiyofasi turli qarama-qarshiliklar, g‘oyaviy-badiiy kurashlar oqimida shakllanadi. Lirik “men” o‘zining tinimsiz haqiqat izlanishlarida sub’ektiv hamda ob’ektiv moneliklarni bartaraf etish uchun kurashadi. Mazkur g‘oyaviy-estetik kurashning ilk bosqichi navbatda lirik qahramonning o‘z ichki dunyosidagi kelishmovchilikni, ikkilanish va ishonchsizlikni engishga urinishi bilan xarakterlanadi. Zotan, dunyoni anglash o‘z-o‘zini anglashdan boshlanadi” [9, 6-b.]. A. Blok aytganidek, “shoirlar o‘z ijodlaridagi mushtarakliklar bilan emas, balki bir-birlari bilan farq qilib turuvchi xususiyatlari bilan qiziqarlidir” [3, 89-b.]. Shoir oddiy bir detallardan foydalanib olam-jahon ma’nolarni ifodalshi mumkin. Chunki bu detallar poetik timsolni vujudga kelishida muhimdir. Faxriyorning she’rlarida esa kishi ruhiga ta’sir etuvchi inson hayotining shunchaki har qanday holati emas, inson harakatidagi suvrat ham beriladi.

Faxriyor o‘ziga tanlab olgan so‘qmoqdan izchil, boshqalarning fikrlariga e’tibor bermasdan qadam bosdi va xato qilmadi, deb aytishimiz mumkin. Shoir bu bilan estetik me’yorlarni, talablarni ham buzmaganligini asarlari mutolaasi jarayonida yaqqol seziladi. “She’riyatimizdagi g‘oyaviy-badiiy sifat o‘zgarishlari ilk avvali izhori samimiyatda, uslubiy izlanishlarning o‘ziga xos yo‘nalishda namayon bo‘ldi” [9, 10-b.].

Faxriyor she’riyatida garchi murakkab tushunchalar bisyor bo‘lsa-da, biroq she’rning tuzilishi jihatdan, tuyg‘ularning chegara bilmasligi ayrim she’rlarda tinish belgilarining mutlaqo qo‘llanilmasligi badiiyatga putur yetkazmaydi. Aksincha, she’rning o‘qilishi barobarida tuyg‘ularning junbushga kelishi, satrlarda ruhiyatining aks etganligi kitobxonning o‘z qalb kechinmalariga mos kelgandek tuyulaveradi.

Shoir “Kechinma” she’riga Robert Frosning “…eng chiqish yo‘li hamisha oradan o‘tadi” degan fikrini epigraf qilib oladi. Bundan ko‘rinadiki, she’rda chorasizlik vaziyatida qolgan shaxsning ruhiy kayfiyati manzaralarini aks ettirishga harakat qilingan. Tuyg‘u chegara bilmasligini inobotga olgan shoir tinish belgilariga deyarli murojaat qilmaydi. She’r hech qanday vazn talablariga ham bo‘ysunmagan:

kim o‘ylab topgan ekan bu so‘zni
idishga o‘xshash bir so‘z
nimani joylasang joylashaverar

So‘z – inson tafakkuridagi gavhar. Nutqqa ko‘chganda moddiylashadi, yozma shaklda ifodalanganda harflar vositasida so‘zning qiyofasini ko‘rgandek bo`lamiz. Shoir so‘zni idishga o‘xshatadi. Bunda kundalik hayotda biz ishlatadigan idishlarga turli holatlarda foydalanamiz. Ehtiyojimizdan kelib chiqib, turmushimizda ishlatamiz. Shoir so‘zni ana shu kundalik ishlatilishi, uning zamiriga turli ma’no yuklashimiz haqida tasavvurimiz yetaklaydi. Haqiqatan ham ijobiy yoki salbiy mazmunni nutqiy ko‘rinishda so‘zlar mohiyatiga singdira olamiz.

Bemor ishtahasiday,
Nozik emas so‘zning ta’bi u qadar

So`zning fikr ifodalamoqchi bo‘lganimizda injiqlik qilmasligi haqida fikrlaydi. So‘zni inson qiyofasida tasvirlaydi. Ishtahasi bemornikiga o`xshamasligini, nozikta’blar toifasidan ham emasligini ajoyib tashbeh qiladi.

gunoh kabi umrni kechirmoqqa
dunyoga kelgan bandaning
o‘zga imkoni yo‘qdir

Yuqoridagi qismda so‘zlar vositasida ifodalanadigan kechinmani inson tomonidan ko‘ngildan o‘tkazishini tabiiy hol ekanligini shuurimizga singdirib yuboradi.

kechinma
umrni kechirmoq jarayonida
bandaning ko‘ngilga tukkan tuyg‘ulari
bo‘yindagi sirtmoq kabi tuyg‘uni
kechirganing evaziga
kim yechib oladi
bilmaysan
kechinma
sirtmoqday mahkumlik

Kechinma tuyg‘ularning mevasi ekanlgini shoir keyingi qismda aks ettirib, ko‘ngilda ruhiy holat kechayotgan jarayonni qat’iy hukm, bu hukmni bekor bo‘lishini bilmasligini ta’kidlaydi.

o‘qilmagan hukmning sharpasi
muqarrar qatl
Har kim bo‘ynida
bir sirtmoq qatlni ko‘tarib yurar
kechinma qilib

Inson hayot kechirar ekan, albatta, kechinmadan holi bo‘lmasligini, uni hayoti davomida sirtmoqday bo‘ynida olib yurishini eslatib o‘tadi.

o‘lim qo‘rqinchlimas
faqat kechinmaga chidab bersang bas
faqat tasavvurga dosh bersang bo‘ldi

Voqea-hodisalar orasida o‘lim har bir insonga dahshatli bo‘lib tuyiladi. Lekin shoir tasavvurimizni o‘limga moslashtira olsak, uning hech nima emasligini anglab yetishimiz mumkinlgini aytadi. N. Eshonqul ta’kidlaganidek, “O‘limdan kuchlimikan tasavvur? Nega shoir “o‘lim” va “tasavvur”ni qiyosning ikki qutbiga

joylashtirayapti? O‘lim tasavvurni o‘ziniki qila olarmikan? Tasavvur esa o‘limniki qila oladi. Hatto uni ijodning vositasiga aylantirishi ham mumkin. Hazrat Navoiy Farhod-u Shirin, Layli Majnunni ajal qo‘liga topshirar ekan, o‘limni o‘ziniki qiladi. Demak, o‘limni tasavvur yengadi. Moziy ham, kelajak ham tasavvur hosilasi bo‘lib ko‘z oldimizga keladi. Tasavvur – ilohiy qudratni his eta olishdir, bu san’atni tushuna va anglay olishdir”.

kechinma
sirtmoq kabi
bu dunyoda yechilmas

Kechinma she’r davomida takror-takror sirtmoqqa qiyoslanadi. Sirtmoq – nafas qisilishiga ishora. Bu orqali shaxs ruhiyatining bo‘g‘ilayotgan ifodasi tavsif etiladi.

kechkining
kechirgining qoldig‘i
kechinma
13 raqami kabi
hech narsaga bo‘linmas parchalanmas
uning kattalashib borayotgan yaxlitligi
yurakni yoradi qoq o rtasidan
hayot va mamotga tengdan nasiba
ulashadi odil kechinma

Inson yashashi davomida turli sinovlarga duch keladi. Bunday hollarda uning ko`nglidan turli kechinmalar kechadi. “kattalashib borayotgan kechinma” tashvishlarning ko‘payib borayotganiga ishoradir. Shoir bunday kechinmalarni boshdan kechirish yurak bo‘lib yuboradi deya ta’kidlaydi.

kechinma
ko‘ngil hukmi
ado etilmaguncha
hukmdan qutulib bo‘lmaydi [4, 63-b.].

Shoir she’rga shunday yakun yasaydi. Kechinmaning eng muhim jihati – uni ko‘ngildan o‘tkazib yubormaguncha inson ruhiyatini tark etmaydi.

Faxriyor turli-tuman poetik obrazlardan foydalanib, tasavvurni yanada yorqinroq, nurli bir manzil tomon yetaklashga va bunda ma’lum bir yutuqqa erishgan shoir sifatida o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga egadir. She’rlarida lirik qahramonning tafakkur tabiatidagi zamon shiddati, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar murakkabligi, zamondoshlarning orzu-armonlari, qayg‘ulari, g‘amlari, quvonchlari o‘z ifodasini topgan. Shoir she’rlarining tahlilidan shu narsalar ayonlashadi, shoir she’rlarida hayotiy, tevarak-atrofimizda mavjud, lekin bizga mavhum, notanish bo‘lgan falsafiy g‘oyalar ilgari suriladi. Uning qahramonlari turfa bo‘yoqlarda chizilgan, turfa insonlardir. Ular aynan ana shu falsafiy ruh bilan sug‘orilgan, gavdalantirilgan. Darhaqiqat, uning she’riyatida inson, jamiyat va hayot haqidagi tasavvurlar o‘z aksini topgan.

Xulosa va takliflar. Faxriyor inson, jamiyat, tabiat dunyosiga doir yangi talqinlar badiiy estetik tafakkurdagi sifat o‘zgarishlarni vujudga kelishida astoydil mehnat qildi. Avvalo, she’rlaridagi o‘z ideali sari intiluvchi ruh bilan kishini o‘ziga

rom etadi. Shoir she’rlarida o‘ziga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Uning she’rlari qahramonlarining xatti – harakatlari, o‘y – fikrlari, kechinma va tashvishlari bilan o‘ta hayotiy, samimiy holda badiiy matn tarkibiga singdirib yuborilgan. Shuning uchun ularning xarakter – xislatlari, so‘zlash moneralari o‘zaro munosabat, o‘zbekona ruhdan biroz yiroqlashganday, biroz g‘ayritabiiy tuyuladi. Inson ruhiyatini, diqqat – e’tiborini esa g‘ayritabiiy tuyilgan she’rlar, ko‘proq o‘ziga tortadi. Shoir she’riyatini o‘rganish jarayonida kelingan xulosada Forobiyninng quyidagi shoirlar haqidagi fikrlarni keltirish juda o‘rinlidir: “shoirlar chindan ham tug‘ma qobiliyatli kishilar bo‘ladi va ular tashbih va tamsilga layoqatli bo‘ladilar. Shoirlar yo she’r navining ko‘p turida, yo bo‘lmasa bir turida ijod qilishga layoqatli bo‘ladilar” [6, 70-b.].

Xulosa qilib aytganda, majoziy – ramzli obrazlar vositasida fikrlash XX asr she’riyati qatori Faxriyor ijodida ham kuzatiladi. Demak, mustaqillik yillarida ramzlarga murojaat etish ko‘lami yanada kengaydi. Eng muhimi esa u ham shaklan, ham mazmunan o‘z uslubiga ega bo‘lgan shoirdir. Bunday badiiy estetik she’riyatni har tomonlama o‘rganish ijod maktabi o‘quvchilariga tafakkur dunyosini kengaytirishga, zamonga xos qarashga ega bo‘lishini ta’minlashga tagzamindir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduhakim M. So‘z sehri. – Urganch: Xorazm tahririyat nashr bo‘limi. 1994. – B. 3.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston. 2002. – B. 58.
3. Блок А. О литературе. – Москва: Федерация. 1931. – С. 89.
4. Faxriyor. Geometrik bahor. – Toshkent: Ma’naviyat. 2004. – B. 3, 63, 80.
5. Fitrat A. She’r va shoirliq //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1995.
6. Forobiy. She’rlar san’ati haqida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – B. 70.
7. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. –Toshkent: Fan, 2007. – B.18, 19.
8. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 106.
9. Yashar Q. O‘zbek she’riyatida poetik fikrning yangilanish jarayoni. Filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – B. 6, 10.